

**AHMAD GHAZALI'S PERSONALITY AND SCIENTIFIC HERITAGE****Fotima Nabixonovna Khodjayeva**

Associate Professor, Bukhara State University

Email: f.xodjayeva.bsu@gmail.com

Bukhara, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: thinkers, Sufism, education, philosophy, scholarly legacy, love, affection, preacher, madrasa, worldview.

Received: 22.08.25**Accepted:** 23.08.25**Published:** 24.08.25

Abstract: This article highlights the personality and scholarly legacy of Ahmad Ghazali, one of the prominent representatives of the Muslim world who left a significant mark in the history of Sufism, and a mystic who wrote equally fluently in both Arabic and Persian. It is stated that several works from Ahmad Ghazali's scholarly and spiritual legacy have come down to us, and the focus is on analyzing the scholar's creative work. The main theme of Ahmad Ghazali's philosophical views is love for God the theme of divine love. In the history of Sufism, this is precisely what sets him apart. He masterfully depicted matters concerning love for God and divine love in his works "Savonih al-'ushshoq", "Bahr al-Muhabba", "Bahr al-Haqiqa", and others, and the significance of the spiritual legacy he left behind within Eastern philosophical thought is highlighted.

AHMAD G'AZZOLIY SHAXSIYATI VA ILMIY MEROSI**Fotima Nabixonovna Xodjayeva**

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Email: f.xodjayeva.bsu@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: mutafakkirlar, so'fiylik, ta'lim, falsafa, ilmiy me'ros, ishq, muhabbat, voiz, madrasa, dunyoqarash.

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvuf tarixida muhim iz qoldirgan musulmon dunyosining zabardast vakillaridan biri, arab va fors tilining har ikkalasida bir xil qalam tebratgan mutasavviflardan Ahmad G'azoliy shaxsiyati va ilmiy merosi yoritilgan.

Ahmad G‘azzoliy o‘zining ilmiy-ma’naviy merosidan bir necha asarlar bizgacha yetib kelganligi bayon etilgan hamda alloma ijodi tahliliga qaratilgan. Ahmad G‘azzoliyning falsafiy qarashlarining asosiy mavzusi Allohga bo‘lgan muhabbat, ishq mavzusidir. Tasavvuf tarixida uni ajratib turgan jihat ham aynan shudir. U Allohga bo‘lgan muhabbat, ishqqa doir masalalarini mukammal tasvirlagan asarlari “Savonih ul-ushshoq” “Bahrul - muhabba” “Bahrul-haqiqat” va boshqa u qoldirgan ma’naviy merosning sharq falsafiy tafakkuridagi ahamiyati yoritilgan.

ЛИЧНОСТЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ АХМАДА ГАЗАЛИ

Фотима Набихановна Ходжаева

Бухарский государственный университет, доцент

Email: f.xodjayeva.bsu@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: мыслители, суфизм, образование, философия, научное наследие, любовь, божественная любовь, проповедник, медресе, мировоззрение.

Аннотация: В статье рассматриваются личность и научное наследие одного из выдающихся представителей мусульманского мира, оставившего заметный след в истории суфизма, Ахмада Газзоли, мистика, одинаково свободно владевшего арабским и персидским языками. Отмечается, что до нашего времени дошли несколько произведений из его научно-духовного наследия, а также уделяется внимание анализу творчества учёного. Центральной темой философских воззрений Ахмада Газзоли является любовь к Богу тема божественной любви. Именно этот аспект выделяет его в истории суфизма. Он мастерски раскрыл вопросы, связанные с любовью к Богу и божественной любовью, в таких произведениях, как «Савоних ул-ушшок», «Бахр ал-мухабба», «Бахр ал-хакикат» и других. В статье также раскрывается значимость его духовного наследия в контексте восточной философской мысли.

Kirish

Olim imom, Rabboniy orif, shayxlar shayxi Abul Fath Ahmad al-G‘azzoliy – quddisu-sirruh buyuk karomatlar sohibidir. Nasihati ta’sirli, suhbati totli va go‘zal edi. Shuningdek va’z va

tasavvufni xohladi va ko'nglida bu orzu ustunlik qildi. Akasi Abu Hamid Nizomiya madrasasi ta'limini tashlab, zohidlik hayotiga moyil bo'lgach, uning o'rnida muallimlik vazifasini bajardi. U akasining "Ihyo ulumid-din" asarini bir jildida jamlab, "Lubob ul-Ihyo" deb nom qo'ydi. Basirat ilmini egallash uchun juda ko'p mamlakatlarga sayohat qilgan [1].

Mutasavvifning to'liq ismi Abul Futuh Majdiddin Imom Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad G'azzoliy at – Tusiy. Uning kunyasi Abul-Futuh bo'lib, Zayniddin, Majduddin va Ishhabuddin kabi taxalluslar bilan tanilgan. Manbalarda o'zi haqida qo'llanilgan ifodalardan ba'zilar quyidagilarni o'z ichiga oladi: "Malikul-abdol", "Sultonut-tariqat", "Shayhul-mashoyih", "Junaydi-soni", "Kurratu ayni Muhammad Mustafo", "Sahibi karamat va ishorat", "Jamolul-islom" [2].

Ahmad G'azzoliy tug'ilgan yili haqida turli xil fikrlar mavjud. Masalan, Muhammad Hasan Ja'fari "Tazkirayi Ja'fari" asarida "Ahmad G'azzoliy 62 yil yashagan", deb yozadi va bundan keyin Ahmad G'azzoliy 520 yilda vafot etgan, deb ko'rsatiladi (1126). Bundan ma'lum bo'ladiki, Ahmad G'azzoliy 458 yilda tug'ilgan (1066).

Yana bir eronlik tadqiqotchi Ahmad Mujohidning kitobi "Ahmad G'azzoliyning forsiy asarlar to'plami" ("Majmuai Osor-ye Farsi Ahmad G'azzoliy") muallif fikricha, mutafakkir 451-454 (1059-1062) yillarda tug'ilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Ahmad G'azzoliy shaxsiyati va ilmiy merosiga oid falsafiy-qarashlarini o'rganishda ilmiy bilishning analiz va sintez, retrospektiv tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik usul, sinergetik usullaridan foydalanilgan. Ushbu metodologiya asosida Ahmad G'azzoliy shaxsiyati, hayot yo'li va ilmiy merosi chuqur tahlil qilinib, ularning insoniy xususiyatlari, insonparvarlik g'oyalari, yoshlarni barkamol qilib tarbiyalash tamoyillarini shakllantirishdagi o'rnini oydinlashtirildi.

Natijalar va muhokama

Ahmad G'azzoliy buyuk mutasavvif, ma'naviy yetuk inson sifatida kamol topishlarida oilaning roli katta. Ayniqsa, otasi va akasi Homid G'azzoliyning hissalarini beqiyosdir. Dastlabki ta'lim yozish, o'qishni akasidan o'rgangan bo'lsalar, otalari ham ilmga chanqoq kishi sifatida bolalarining ta'lim –tarbiyasiga katta ahamiyat berganlar.

Ahmad G'azzoliy yoshligidan juda mehnasevar, o'tkir zehnlilik va bilim doirasi keng, o'z davrining ilmlarini chuqur egallagan mutafakkir, so'fiy shoir edi. Uning ilmiy qiziqishi va salohiyati nihoyatda keng bo'lib, tasavvuf bilan bir qatorda fiqh, adabiyot va va'zlarga ham katta qiziqish bildirgan.

Ilmiy adabiyotlarda Ahmad G'azzoliy hayotini besh davrga bo'lib o'rganish uchun yetarli ma'lumot mavjud. Bular:

- 1) bolalik va ta'lim davri Tus va ehtimol Jurjonda o'qish;
- 2) Nishopurda Shayx Abu Bakr an-Nassoj (vafoti 487/1094) boshchiligidagi ma'naviy tayyorgarlik davri;
- 3) Bag'dodda voizlik qilish va o'qitish davri;
- 4) U Bag'dodda va Tusda akasining oilasida bo'lgan davr;
- 5) 517/1123 yoki 520/1126 yillarda Qazvon (Qazvin)da vafot etishi bilan yakunlangan sayohatli voizlik davri.

Akasi vafotidan so'ng, Ahmad o'zining sayohatli va'zini davom ettirib, Bag'dod, Isfaxon, Nishopur, Tabriz, Qazvin va Hamadon kabi ko'plab yirik shaharlarga sayohat qildi hamda o'zidan keyin ko'plab talabalar va asarlarni qoldirdi.

Mutasavvif ma'naviy merosiga etibor qaratib ekanmiz, uning arab va fors tillaridan yaxshi foydalangan va ikki tilda ham asarlar yozgan so'fiy muallif sifatida ko'rish mumkin. Ahmad G'azzoliyga tegishli bo'lgan asarlar ro'yxatida yuzdan ortiq nomlar mavjud bo'lib, ulardan yigirmaga yaqini shu kungacha to'liq saqlanib qolgan va boshqa ko'plab qismlarga bo'linib saqlanib qolgan. Ular asosan arab va fors tillarida yozilgan va tasavvuf muammolariga bag'ishlangan.

Ahmad G'azzoliy yozgan asarlar xrologiyasi turli ilmiy doiralarda turlicha talqin qilinadi. Kotib Chalabiy (vaf. 1067/1657) "Kashfuz-zunun" asarida Alloma asarlarini qo'yidagicha ko'rsatadi[4].

1. Lubob al-Ihyo.
2. At-tajrid Kalimatit-tavhid.
3. Az-zohira al-basira.
4. Risolat at-tayr.
5. Sirrul-Asrori va Tashkilul-Anvor.
6. Savonih ul-'ushshoq.
7. Kitobul-Haqq val-Haqiqa.
8. Majolis.

Bag'dodli Ismoil Poshsho (vaf. 1338/1920) e'tirofiga ko'ra, Ahmad G'azzoliy asarlari ro'yxati quyidagicha.

1. Bahrul- muhabba.
2. Bavorikul-Ilma Takfir man Yuharrimus-samo.
3. At-tajrid Kalimatit-tavhid.
4. Az-zohira al-basira.
5. Ar-Risolatul Ayniyya.
6. Kitobu'l-Hakki va'l-Hakikati.

7. Lubob al-Ihyo.
8. Al-Majolis.
9. Madhalus Suluk ila manozilul-muluk.
10. Letaiful-fikri va javomi id-Durur.

Umar Rizo Kahhalaning (vaf. 1407/1987) ko'rsatishicha mutasavvif asarlari ro'yxati quyidagilardan iborat.

1. Lubob al-Ihyo.
2. Az-zohira al-basira.
3. Sirrul-Asrori va Tashkilul-Anvor.
4. Havas u't-Tavhid.
5. Savonih ul-ushshoq [5].

Sulaymon Uluday Ahmad G'azzoliy asarlarini quyidagicha ko'rsatadi.

1. Savonih ul-'ushshoq.
2. Lubob al-Ihyo.
3. Bavorikul-Ilma Takfir man Yuharrimus-samo.
4. At-tajrid Kalimatit-tavhid.
5. Az-zohira fi ilmil-basira.
6. Sirrul-Asrori va Tashkilul-Anvor.
7. Havas u't-Tavhid [6].

Nasrulloh Purjaviy fors tilida yozgan "Sultoni tariqat" nomli asarida alloma asarlari ro'yxatini quyidagicha keltiradi.

1. Bahrul-haqiqa.
2. Bahrul -muhabba.
3. Bavariqul-ilma.
4. At-tajrid Kalimatit-tavhid.
5. Al-Haq val-Haqiqa.
6. Az-zohira fi ilmil-basira.
7. Risola fi ilaha ilalloh.
8. Sirrul-Asrori va Tashkilul-Anvor.
9. Savonih ul-ushshoq.
10. Ferahul-Asmo.
11. Kalimat dar Takriri-Maqomot.
12. Lubob al-Ihyo.
13. Ashkiyya.
14. Ayniyya.

15. Latoifu'l-fikr.
16. Majolis.
17. Mukabatu Ahmad G'azzoliy ba Aynul-Kuzot Hamadoniy.
18. Maktubi az Ahmad-i G'azzoliy.
19. Manhasu'l-Alhab.
20. Maymuna.

Xalil Boltachi Ahmad G'azzoliy asarlari ro'yxatini qo'yidagicha ko'rsatadi.

1. Savonih ul-ushshoq.
2. Majolis.
3. At-tajrid Kalimatit-tavhid.
4. Risolatut tayr.
5. Ar-Risolatul Ayniyya.
6. Bahrul-muhabba.
7. Bavorikul-Ilma Takfir man Yuharrimus-samo.
8. Sirrul-Asrori va Kashf il-Anvor.
9. Al-Haq val-Haqiqa.
10. Az-zohira fi ilmil-basira [5.24-25]

Eronlik olim Jaloliddin Xumo'iy o'zining "G'azzoliynoma" asarida Ahmad G'azzoliy ilmiy merosini tahlil qilish asnosida, uning yuzdan ortiq asarlari mavjud degan xulosaga keladi.

"Savonih ul-ushshoq" (Ro'y bergan holatlar). Uning eng ahamiyatli shoh asari. Bu asar Ahmad G'azzoliyning tasavvufiy muhabbat haqidagi g'oyalari fors tasavvufiy adabiyotida va ayniqsa she'riyatida chuqur iz qoldirib, tasavvufchilarning Xudoga bo'lgan muhabbatini madh etdi. Asar bir debocha va yetmish olti fasldan iborat.

"Savonih ul-ushshoq" bu - fors tasavvufi tarixidagi birinchi risola, ilohiy sevgi psixologiyasiga bag'ishlangan hamda tasavvufning keyingi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan asardir.

Ahmad G'azzoliyning "Savonih ul-ushshoq" asari tasavvuf sohasida yozilgan barcha kitoblardan farq qiladi. Ushbu asar so'fiylik odobini dindorlarga va so'fiylarga o'rgatish uchun yozilmagan. "Savonih ul-ushshoq" asarining mazmuni oshiqning ruhiy holati va ma'shuqning sifatleri bilan bog'liqdir. Sof metafizik asar bo'lgan kitobning mavzusi ishqdir.

"At- tajrid fi kalimatit-tavhid" - arab tilida yozilgan kichik hajmli mazmunan juda boy asarlaridan biridir. Ushbu asar ba'zi manbalarda Imom G'azzoliyga ham nisbat etiladi. Asarning yozma nusxalari qaydlari Ahmad G'azzoliyning nomi bilan bog'liq ekanligi, shuningdek, til va uslubni Ahmad G'azzoliyning boshqa asarlariga o'xshash bo'lganligidan bu asarni ko'pchilik tadqiqotchilar Ahmad G'azzoliyga tegishli, deb hisoblaydilar.

Ahmad Gazzoliy tomonidan arab tilida yozilgan va kichik hajmli bo'lishiga qaramay, u muhim ahamiyatga ega. Bu muallifning tavhid mavzusiga dono yondashuvini ko'rsatishi bilan e'tiborlidir. Asarda insonning qalb, sir kabi ichki qobiliyatlariga e'tibor qaratilgan. Uning tavhid kalimasi bilan aloqasiga urg'u beriladi va diqqat qilinadi.

“Majolis” - Ahmad G'azzoliyning Bog'dodda bo'lgan vaqtda bergan va'zlari va suhbatlarining bir yerda to'plagan kichik hajmli arab tilida yozilgan asaridir. Bu asarning nusxasi Dublinda “Chester Bettiy” kutubxonasida 3682/2 raqam ostida saqlanadi. Asarda ibodatlarda ixlosli bo'lish masalasi, shuningdek, o'zidan so'ralgan savollarga bergan javoblaridan iborat. Asarda zikr etilgan qarashlarning oyat, hadis va Payg'ambar qissalari bilan asoslantirilgani yaqqol ko'zga tashlanadi. Asar Ahmad Mujohid tomonidan fors tilida tarjima qilingan.

“Risolai Ayniyya va Nomahayi Ahmad G'azzoliy” – bu asar talabalariga va Aynul Quzzot Hamadoniya yozgan maktublaridan iborat asardir. Maktublar arabcha - forsha aralash shaklda yozilgan. Ibodatlar, ba'zi tasavvufiy mavzular, diniy va ahloqiy tavsiyalar, ilm-amal birligi va o'limning haqiqati asosiy mavzulardir. Maktublarda avvalgi mutasavviflarning so'zlari va ibrat beruvchi manoqiblariga alohida ahamiyat berilgan.

“Bahr ul-mahabba” (Muhabbat dengizi) – ushbu asar shu nom bilan 1894 yilda Bombay shahrida chop etilgan. 1900 yilda esa “Ahsanul-qasas” (Qissalarning eng go'zali) degan nomda Dehlida nashr etilgan. Lekin asar “Tafsiru surati Yusuf” deb nomlangan bo'lib, sharqshunos Brokkelman uni “Sirrul-'olamiyn fiy tafsiri surati Yusuf” degan nom bilan zikr qiladi. Asar 1894 yil Tehronda ham nashr etilgan. Asarning to'liq nomi “Bahr-ul-muhabba fi asroril-muvadda” (Do'stlik sirlariga to'la muhabbat dengizi) deb nomlangan. Asar ilmiy tafsir bo'lishi bilan birga badiiy adabiyotning ham oliy bir namunasidir. Muallif Yusuf va Zulayxo voqealaridan o'ta ibratli xulosalar chiqaradi, har bir bo'limga tegishli bir hikmatli naqlni keltiradi, har bir bayon so'ngida ilohiy ishq shu'lalanib turgan sermazmun she'rlarni ilova etadi.

“Bahrul muhabba” asari Qur'oni karimning “Yusuf” surasi asosida yozilgan bo'lib, “Go'zal qissa” deb ta'riflanuvchi ushbu surada asosan Yaqub (a.s.)ning o'g'li Yusuf (a.s.)ning boshidan kechirgan voqealari aks ettirgan. Asarda sabr, iymon, zulm, hasad, zino, ilm, bashorat, muhabbat va ishq haqidagi fasllarida insoniy xususiyatlar o'z ifodasini topgan.

“Bahrul-haqiqat”. Ahmad G'azzoliyning yana bir tasavvufga oid ajoyib asarlardan biri “Bahrul-haqiqa” asaridir. Bu asar Nasrulloh Purjavadiy tomonidan Tehronda hijriy 1356 yilda tarjima qilib nashr ettirgan. Ushbu asarda yo'lovchi o'z qalbi va axloqining kamoloti uchun zarur bo'lgan ushbu axloqiy qadriyatlarni zaxira sifatida olganidan so'ng, u yetti bosqichni yoki maqomni oshib o'tishga kirishishi mumkin. Ahmad G'azzoliy uchun bu maqomlar shunchaki bekatlar emas, balki ilm olish, insonni kamol toptirish maqomlaridir, chunki solik “har bir ummondan” o'tar ekan, o'zida ijobiy axloqiy fazilatlarni jamlaydi, komillikka erishishning uzoq

yo'lini bosib o'tadi. Bundan kelib chiqib, tasavvuf yo'li yoki G'azzoliy tili bilan aytganda, "ummonlarni oshib o'tish yo'li" yetti asosiy bosqichdan iborat. Ularning har biri yangi xislatlardan birini egallash bilan tavsiflanadi.

Bu yo'lining asosiy maqomlari yoki Ahmad G'azzoliy ta'biri bilan aytganda, "ummon"lari quyidagilar sanaladi:

Endi bu ummonlarni sanab o'taylik:

1. Birinchi ummon Ma'rifat. Undan topiladigan durning nomi "Yaqin"dir.
2. Ikkinchi ummon Jalol. Undan topiladigan durning nomi "Hayrat"dir.
3. Uchinchi ummon Vahdoniyat. Undan topiladigan durning nomi "Hayot"dir.
4. To'rtinchi ummon Rububiyat. Undan topiladigan durning nomi "Baqo"dir.
5. Beshinchi ummon Uluhiyat. Undan topiladigan durning nomi "Visol"dir.
6. Oltinchi ummon Jamol. Undan topiladigan durning nomi "Riyoat"dir.
7. Yettinchi ummon Mushohada. Undan topiladigan durning nomi "Faqr"dir.

"Min-hajj al-albab" (Dono insonlar yo'li) bu so'fiy ustoz tomonidan shogirdi uchun ishlab chiqilgan ko'rsatma. Boshqacha qilib aytganda, bu o'z xarakterini yaxshilashning sirli yo'lini tanlagan o'quvchining kundalik hayoti haqida eslatishdir.

"Risolatut tayr" (Qushlar risolasi). U fors tilida yozilgan va uning arabcha tarjimasida kichik farqlar mavjud. Ushbu tarjima manbalarda asosan Abu Homid Muhammad G'azzoliyga nisbat berilgan. Asar Ahmad G'azzoliy uslubiga mos nasriy she'rdir. Murakkab tarzda yozilgan va bu jihatdan Savonihga o'xshaydi. Asar ramziy ma'noda qushlar qissasi bo'lsa-da, aslida bu o'tkinchi soyalar olamida asl vatanidan uzoqda bo'lgan va o'z aslini jannat maskanlarida sog'inib, Ilohiy huzurga uchayotgan barcha mavjudotlar haqida hikoya qiladi. Farididdin Attorning "Mantiqu't-tayr" asariga manba bo'lgan bu risolaning mavzusi Attor asari bilan bir xil.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, insoniyatning falsafiy, madaniy, ma'naviy hamda axloqiy xazinasini boyitib kelayotgan buyuk mutafakkir, mutasavvif va faylasuf Ahmad G'azzoliy shaxsiyati ilm-fan taraqqiyoti va rivojida yuksak ahamiyat kasb etadi. U Sharqning so'fiy-tasavvuf vakili sifatida O'rta asrlarning taniqli donishmandlardan bo'lib, tasavvuf yo'nalishida o'zining ajoyib asarlarini yaratgan. G'azzoliydan boy ma'naviy meros qolgan bo'lib, uning asarlaridagi diniy-ma'rifiy g'oyalar islom tasavvufi asosida shakllangan bo'lsada, u o'z davrida mustaqil o'ziga xos pozitsiyaga ega edi. Allomaning ijodi Sharqda ham, G'arbda ham keyingi avlodlarning ilmiy falsafiy fikrlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hace Muhammed Parsa. Tevhide giriş. Faslu'l-Hitab tercemesi. "Erkam yayınları". İstanbul: 1988. -s. 140.

2. Halil Baltacı. “Saf Aşkın Üstadı”: Ahmed Gazzâlî ve Tasavvuf Anlayış, tasavvufilmî ve akademik araştırma dergisi [2013/2]. – s. 2-3.
3. Амирхонов Ш.Т. Философско-этические воззрения в мистицизме Ахмада Газали. кандидат философских наук. ... дисс. – Душанбе, 2011. - 38–39 с.
4. Kâtip Çelebi (ö. 1067/1657), Keşfu’z-Zunûn an Esâmîi’l-Kütüb ve’l-Fünûn, I-V, trc. Rüştü Balcı, Tarih Vakfı Yayınları, İstanbul 2017. s.72.
5. Mustafa Said Akdoğan. Ahmed Gazzâlî ve bevâriku’l-ilmâ‘ fî tekfîri men yuharrimu’s-semâ‘ isimli eserinin incelenmesi. Yüksek Lisans Tezi. Sivas Mayıs 2019. – s. 24-25.
6. Süleyman Uludağ, “Ahmed el-Gazzâlî”. – İstanbul “DİA”, 1989. s.70.
7. Sobirovich, T. B. (2024). Renewal of Societal Ideosphere: An Analytical Study of Medieval Philosophical Thought. Philosophy, 8(3), 12-18.
8. Sobirovich, T. B. (2025). The Development of Political Doctrines in the Context of Medieval Central Asian Civilization. Asian Journal of Basic Science & Research, 7(2), 16-24.